

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

IJTIMOIIY-IQTISODIYOT FAKULTETI

“IJTIMOIIY IQTISODIYOT, MENEJMENT VA MOLIYA” KAFEDRASI

САΦАРОВ Б.Ш.

**“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” FANIDAN
ma'ruzalar matni**

SAMARQAND – 2012

Кириш

Иқтисодиётнинг эркинлашуви шароитида солиқлар ва уларга тенглаштирилган тўловлар давлат бюджетининг асосий даромад манбаи ҳисобланади, шунинг учун солиқлар ва солиққа тортиш ихтисослиги талабалари юридик ҳамда жисмоний шахслардан ундириладиган солиқлар ва уларга тенглаштирилган тўловлар бўйича чуқур билимга эга бўлиши, тўловларни ҳисоблаш ва бюджетга тўлаш тартибларини солиқ назарияси, солиқ қонунчилиги асослари, солиқни прогноз қилиш ва бошқа фанлардан ўзлаштирган билимлари асосида мукамал ўрганган етук мутахассис бўлиб етишишини бугунги кун талабаи тақозо этмоқда. Солиқлар ва солиққа тортиш бўйича мутахассислар мамлакатимизда амалга ошириладиган солиқ ислохотларининг тадрижий ривожланиши ва Президентимиз томонидан чиқариладиган фармон ва қарорларнинг маъно ва моҳиятини англаши, иқтисодий билимга эга бўлиш билан бир қаторда солиқ турларини, солиқ объектлари, субъектлари, солиқни ҳисоблаш йўллари, уни ундириш усуллари, имтиёзлари, солиқ органларига ҳисоб-китобларни тақдим этиш тартиби бўйича кўникмаларга эга бўлиши зарур.

Фан бўйича баҳолаш мезонлари олдиндан берилиб, маъруза ва семинар машғулотлари давомида солиқ турларининг ҳисобланиш услубиятини тавсифловчи масалалар, таҳлилий жадваллар, слайдлар ҳамда кўргазмали қуроллар қўлланилишига ҳамда янги педагогик технологиялар асосида машғулотлар ўтказилишига алоҳида эътибор қаратилиши керак.

MA'RUZALAR MATNI.

I-Mavzu: «Soliqlar to'g'risida tushuncha va soliqqa tortish ahamiyati hamda zarurligi»

Reja.

1. Soliqlar va soliqqa tortish fanini o'qitishning zarurligi, uning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.
2. Soliqlar va soliqqa tortish fanining predmeti va funktsiyalari.
3. Soliqlar va soliqqa tortish fanining mutaxassis kadrlarni tayyorlashdagi roli.

1. Soliqlar va soliqqa tortish fanini o'qitishning zarurligi, uning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Soliqlar va soliqqa tortish fanining boshqa fanlar singari o'ziga xos predmet va vazifalari mavjud. Bu fanni o'qitishning zarurligi bozor iqtisodiyoti munosabatlari ichida soliq munosabatlarining ahamiyati o'sib borayotganligidan kelib chiqadi.

Soliqlar va soliqqa tortish fani soliq voqe'liklarini (harakatlarini) chuqur o'rganish asosida zaruriy xulosalar chiqarib, ularni amaliyotga tadbqiq etish yo'llarini o'rgatadi.

Soliqlar va soliqqa tortish fani soliq amaliyotidagi eng to'g'ri, eng mukammal va eng progressiv voqe'liklarni o'rganib, amaliyot uchun xuddi bir dasturiy amalday yoritib boradi. Nazariya voqe'liklarni amaliyotdan oladi va yana amaliyotga eng to'g'ri, ma'qul va ilg'or tajribalar olinib amaliyotga yo'l ko'rsatish uchun o'rgatiladi.

Demak, nazariya amaliyot uchun kerak va amaliyot uchun kompas, barometr, yo'l boshlovchi vazifasini bajaradi. Nazariyasiz amaliyot yo'ldan adashgan yo'lovchidir. Nazariyani chuqur bilgan amaliyotchi har qanday o'zgarishlarda ham ishlab keta oladi va yo'ldan adashmaydi.

Soliqlar va soliqqa tortish fanini o'qitishning zarurligi amaliyotda yo'ldan adashmaslik, keraksiz soliqlar bo'yicha o'zgartishlarga yo'l qo'ymaslik, amaliyotda istiqbolli qadamlar tashlash uchun va katta muvaffakiyatlarga erishish uchun ham zarurdir.

Soliqlar va soliqqa tortish fani soliq nazariyasi fani bilan chambarchas bog'liqdir, uning maxsus bo'limi, ya'ni chuqurlashtirilgan va kengaytirilgan bo'limidir. Chunki soliq nazariyasi qonuniyatlari umum iqtisodiy nazariya qonuniyatlaridan chetga chiqib keta olmaydi, ularga asoslanadi va rivojlantiriladi.

Soliq munosabatlari moliya munosabatlarining tarkibiy qismi bo'lganligi bois, soliqlar va soliqqa tortish fani ham moliya nazariyasi fani bilan chambarchas bog'liq. Soliqlar va soliqqa tortish fanining o'ziga xos xususiyatlari soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasidagi majburiy harakterga ega bo'lgan pul munosabatlarini o'rgatadi.

Soliqlar va soliqqa tortish fani davlat byudjeti fani bilan ham o'zaro bog'liqdir. Chunki soliqlar oxir oqibatda byudjet daromadlarini shakllantiradi. Soliqlar (daromadlar) bo'lmasa byudjet munosabatlarining o'zi bo'lmaydi. Bu fan chet mamlakatlar soliq tizimi, buxgalteriya hisobi, soliq qonunchiligi asoslari, soliqlarni prognoz qilish fanlari bilan ham chambarchas bog'liqdir.

2. Soliqlar va soliqqa tortish fanining predmeti va funktsiyalari. *Har qanday fan o'zining predmetiga, ya'ni izlanish ob'yektiga ega bo'ladi. Masalan, texnologiya fanining predmeti bo'ladi kimyoviy moddalarning tarkibini o'rganish hisoblansa, mashinasozlik fani uchun mashinalar mexanizmini harakteristikasi bo'ladi, soliqlar va soliqqa tortish fanining predmeti soliq munosabatlarini (harakatini), soliqlar mexanizmini har tomonlama o'rganishdan iboratdir.*

Fanning predmeti soliq voqe'liklari pul munosabatlarini o'rganishdan iborat bo'ladi. Bu pul munosabatlari soliq to'lovchilar (Yuridik va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o'z mulkiga aylantiruvchi (soliq oluvchi) davlat o'rtasidagi munosabatlardir. Fanning mohiyati shu o'rtadagi munosabatni chuqur o'rganish, ularni to'g'ri tashkil qilishni ta'minlashdir. To'g'ri tashkil etish deganda soliq munosabatida qatnashuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatini e'tiborga olish, muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilish tuShuniladi. Bu muvozanatni saqlashda tomonlar adolatlik va insoflik tamoyiliga amal qilishi zarur. Tushunarliroq qilib aytsak, byudjetga soliqlarni olishda soliq to'lovchilar bo'yniga ortiqcha og'irlik osmaslik, ularni o'z ishlab chiqarishidan manfaatdorligini so'ndirib qo'ymaslik, ularning dasturlari va rejalarini tez - tez o'zgartirishga olib bormaslik va xokazolarga e'tibor berish ko'zda tutiladi. Bu erda tomonlarning do'stona munosabatda bo'lishi, bozor iqtisodiyoti talablariga mos iqtisodiy munosabatlar bo'lishini o'rgatadi. Fanning predmetini chuqur o'rganish Shuni ko'rsatadiki, munosabatlarda bir tomonlama zo'ravonlik munosabati bo'lguday bo'ladi, ikkinchi tomon unga javoban o'z daromadlari, boshqa soliq ob'ektlarini har xil yo'llar bilan yashiradi. Bunday hollarda har qanday huquqiy hujjatlarning ham kuchi etmay qolishi mumkin. Daromadlarni, soliq ob'ektlarini yashirish holati ham munosabatlarni buzadi.

Demak, soliqlar va soliqqa tortish fanini chuqur o'rganish orqali amaliyotda soliq tushumlari rejalarini muvaffakiyatli bajarish vazifasiga ham erishish mumkin.

Fanning funktsiyalari soliq mutaxassisi va boshqa soliq idoralari xodimlarini nazariy jihatdan qurollatirish hamda amaliyotda adashmaslik uchun yo'l - yuriklar ko'rsatishdan iboratdir. Shuningdek, chet el soliq amaliyotini o'rganish va taqqoslash asosida tegishli xulosalar ishlab chiqish, ularning ish tajribalarini o'zimizning amaliyotga moslab zarur joylarini tadbiq etishdan iboratdir.

Demak, fanning asosiy funktsiyasi yuqori malakali soliq mutaxassislari tayyorlashda ularni ham nazariy, ham amaliy jihatdan uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlashdir.

3. Soliqlar va soliqqa tortish fanining mutaxassis kadrlarni tayyorlashdagi roli. Soliqlarning paydo bo'lishi davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lganligi uchun hamda xozirgi O'zbekistonda ijtimoiy himoyalangan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat uni tashkilotchisi ekanligidan soliqlar va soliqqa tortish fani davlatning uta zarur bo'lgan xilma - xil vazifalari bilan chambarchas bog'liq va ularga asoslanadi. Davlat mamlakatda yaratilgan ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish uni taqsimlashning qonun - qoidalarini ishlab chiqadi. Bu taqsimlashdagi munosabat bozor iqtisodiyoti sharoitida pul orqali amalga

oshirilganligidan davlat uni taqsimlashni ham pul munosabatlari orqali, ya'ni soliq, pul va kredit orqali amalga oshiradi. Davlatning bunday faoliyatini o'rganish - soliqlar va soliqqa tortish fanining diqqat - markazida turadi.

Bozor iqtisodiyoti talab va taklif, raqobat, qiymat va boshqa qonunlar orqali amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti - erkin iqtisodiyot, pulli munosabatlar iqtisodiyotidir. Soliqlar ham pul munosabatlarini ifoda etganligi uchun bozor iqtisodiyoti tarkibiga kiradi, uning ajralmas qismidir.

Bozor iqtisodiyoti qonunlari - soliqlar va soliqqa tortish fanining asosini tashkil etadi. U qonunlarni chuqur anglamasdan turib soliqlar va soliqqa tortish mexanizmini tushunib bo'lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti qonunlarini o'rganib chiqib, davlat yalpi ichki mahsulot qiymatini soliqlar orqali taqsimlash vazifasini o'z zimmasiga oladi. Shunday ekan, davlat to'g'risidagi ta'limot - davlat iqtisodiyotni boshqarishda bosh rol o'ynashi soliqlar va soliqqa tortish fanining asosi bo'ladi xizmat qiladi. Davlat bozor iqtisodiyotini boshqarishda etakchilik, boshqaruvchilik rolini o'ynaydi. Davlat soliqlarni iqtisodiy mohiyati va vazifalarini o'rganib chiqib, uni amaliyotga tadbqiq qilishni o'z zimmasiga oladi.

Soliqlar va soliqqa tortish faninig soliq xizmati xodimlarini tayyorlashdagi roli. Soliq xizmati xodimlari o'zlariga qonuniy hujjatlarda yuklangan vazifalarni muvaffakiyatli bajarishlari uchun faqat amaliy jihatdan soliqlarni bilibgina kolmasdan, soliqlarning mohiyati, belgilari, ularning ob'yektiv zarurligiga, davlatning soliq siyosati, soliqlar tizimi, soliqqa tortish tizimi, soliq idoralari tizimi va boshqalar kabi nazariy masalalarni chuqur bilishlari zarur. Buning uchun esa soliqlar va soliqqa tortish fanini chuqur o'rganish kerak. Shuni nazarda tutish zarurki, Leonardo Da Vinchi aytganidek: «Nazariya qumondon, amaliyot askarlardir» Nazariya amaliyotni to'g'ri yo'lga boshlovchi kompasdir. Har qanday vazifalarni kadrlar xal qiladi. Shuning uchun, ular chuqur nazariy bilimga va kasb mahoratiga ega bo'lishlari zarur

Fanning mazmunini chuqur egallagan har qanday mutaxassis soliqlar va soliqqa tortish jarayonini o'rganishda va ularni xayotga to'g'ri va to'liq tadbqiq etishda adashmaydi. Shunday ekan bu fan soliq xizmati xodimlari, soliq sohasi vakillari, ilmiy xodimlar uchun o'zlarining ilmiy salohiyatlarini oshirishda katta rol o'ynaydi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar.

1. Soliqlar va soliqqa tortish fanini o'qitish nima uchun kerak?
2. Soliqlar va soliqqa tortish fani nimani o'rgatadi uning qanday funktsiyalari bor?
3. Soliqlar va soliqqa tortish fanining mazmunida nimalarni o'rgatish maqsadi yotadi?
4. Fanni mutaxassis kadrlar tayyorlashdagi roli qanday?

II-Mavzu: Yuridik shaxslarni soliqqa tortish tizimi

Reja.

1. O'zbekiston Respublikasi soliqqa tortish tizimida amalda bo'lgan solikli va soliqsiz to'lovlar hamda ularni amal qilish doirasi.
2. Yuridik shaxslarning solikli va soliqsiz to'lovlari tavsifi.
3. Soliqqa tortish maqsadida Yuridik shaxs tushunchasi. Soliq to'lovchilarni aniqlash asoslari.
4. Hisoblangan soliqlar va yig'imlar uchun Yuridik shaxslarning javobgarligi va ma'suliyati.

1. O'zbekiston Respublikasi soliqqa tortish tizimida amalda bo'lgan solikli va soliqsiz to'lovlar hamda ularni amal qilish doirasi. Soliqlar majburiy to'lovni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildirib, bu munosabatlar soliq to'lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtasida bo'ladi. Korxona va tashkilotlar aholiga xizmat ko'rsatganida, ishlar bajarganida yoki bozorlarda oldi-sotdi kilganda ham pul to'lovlari mavjud. Lekin ular soliq bula olmaydi. Soliq munosabati bo'lish uchun davlat mamlakatda yaratilgan ijtimoiy mahsulot (to'g'riroyoi, yalpi milliy mahsulot) qiymatini taqsimlash yo'li bilan majburan davlat byudjetiga mablag tuplash jarayonini amalga oshiradi.

Soliqlarning o'ziga xos belgilari mavjud bo'ladi, ularga: majburiylik, xazinaga tushishlik, qat'iylik va doimiylik, anik soliq to'lovchi uchun ekvivalentsizlik belgilari mavjuddir.

Birinchi belgi-majburiylik. Soliq va yig'imlar majburiy bo'ladi, bunda davlat soliq to'lovchining bir kism daromadlarini majburiy badal sifatida byudjetga olib kuyadi. Bu majburiylik Oliy Majlis tasdiklab bergan Soliq Kodeksiing tamoyili asosida amalga oshiriladi. Demak, majburiylik belgisi huquqiy tomondan davlat uchun kafolatlangan.

Ikkinchi belgi soliqlarning davlat mulkiga aylanishidir. Soliqlar albatta xazinaga-davlat byudjetiga va boshqa davlat pul fondlariga tushadi. Bordi-yu, to'lov boshqa ixtiyoriy fondlar - «Iste'dod», «Ekosan», «Kamolot», «Nuroniy» jamyoarmalariga tushsa, unda soliq munosabati bo'lmaydi. CHunki majburiylik tamoyili yuk, u to'lov davlat mulkiga tushmaydi.

Soliqlar qat'iy belgilangan va doimiy harakatda bo'ladi. Tarixda 50 va 100 yillab o'zgarmasdan harakatda bo'lgan soliqlar mavjud. Ilmiy asosi kancha chuqur bo'ladi, soliqlar shuncha qat'iy va o'zok yillar o'zgarmasdan harakat qiladi yoki juda kam o'zgaradi.

To'langan soliqlar mamlakat mikyosida hammaga bir xil miqdorda qaytib keladi. Lekin, davlatga to'langan soliq summasi to'lovchining shaxsan o'ziga to'liq qaytib kelmaydi, ya'ni u ekvivalentsiz pul to'lovidir. Masalan, soliq to'lovchi bu yili davlatning soyolikni saqlash va maorif xizmatlaridan xech foydalanmagan bo'lishi mumkin. Lekin bozor iqtisodiyoti sharoitida hamma soliq

to'lovchilarning to'lagan soliq va yig'implari davlatning ularga ko'rsatgan xilma-xil xizmatlari (mudofaa, xavfsizlikni ta'minlash, tartib-intizomni o'rnatish va boshqa ijtimoiy-zaruriy xizmatlar) orqali o'zlariga qaytib keladi. Demak, soliq to'lovchilar nuqtai nazaridan olganda hamma soliqlar bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning ko'rsatgan ijtimoiy xizmatlari uchun to'lanadigan (to'lov) xakdir. *Soliqlar byudjetga va davlat pul fondlariga kelib tushadigan, majburiy harakterga ega bo'lgan pul to'lovi munosabatlaridir.* Shuningdek, soliqlar iqtisodiy kategoriya bo'lganligi uchun bozor iqtisodiyoti munosabatlari, shu jumladan, moliyaviy munosabatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Bozor iqtisodiyoti erkin iqtisodiyotdir, ya'ni har bir huquqiy shaxs, tadbirkor o'z tovariga erkin baho belgilashi, mahsulot etkazib beruvchini topishi va o'zi iste'molchini topib unga mahsulotni sotish huquqiga ega. Shuning uchun davlat ularning bir kism daromadlarini taqsimlab, byudjetga oddiy ajratma sifatida ololmaydi. Soliq qilib olish uchun Oliy majlisning karori zarur, ya'ni qonun bilan olingan to'lov byudjetga utadi. Erkin iqtisodiyot sharoitida soliqlar ham erkin, ochik, anik bo'ladi, demokratik to'lovga aylanadi.

Soliqlar iqtisodiy kategoriya bo'lganligidan to'lovchilar va byudjet o'rtasida daromadlar taqsimlanayotganda tomonlarning iqtisodiy manfaatini, albatta, e'tiborga olish zarur. Soliq to'lovchilar daromadini davlat istaganicha ololmaydi, soliqlarni byudjetga olishning ma'lum chegarasi mavjud. Bu xakda ko'plab yirik iqtisodchilar va davlat arboblari o'z asarlarida ko'rsatib utgan. Uni davlat, shu bilan birga soliq to'lovchilarning mahsulot ishlab chiqarish va foyda olishdagi faoliyatini hisobga olib soliq belgilanadi. Ikkinchi tomondan, soliqlar dan makroiqtisodiyotni rivojlantirish, bozor infrato'zilmasini yaratish va boshqa umumdavlat maqsadlari uchun etarli moliyaviy resurslar tuplash uchun foydalaniladi. Soliqlar mohiyati soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasidagi doimiy, o'zok muddatli munosabatlarda o'z ifodasini topadi. Anikrok aytsak bu erda iqtisodiy munosabat, ya'ni pul munosabati mavjuddir.

Bir xil mohiyatga ega va o'zaro munosabatda bog'liq bo'ladi markazlashgan pul fondini va davlatning boshqa fondlarini majburiy tashkil etadigan soliq va yig'implar turlarining yiyoindisiga *soliqlar tizimi* deb ataladi. Bu ta'rifda soliq va yig'implar Yagona mohiyat, ya'ni «majburiy harakterga ega bo'lgan munosabat» va ularning bir-biri bilan bog'liqligi va nihoyat byudjetga tushishligini ko'rsatadi. Bu O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi mazmuniga mos keladi. Shu erda baxsli masala ham mavjud, ya'ni davlatning byudjetdan tashqari fondlariga (pensiya, ijtimoiy sug'urta, bandlik, yo'l fondlari va boshqalar) to'lovlarni ham majburiylik nuqtai nazardan soliq tizimiga kiritish muammosi mavjud. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 5-8 moddalariga binoan soliqlar tizimi quyidagi tarkibga ega bo'ladi, unga keyingi o'zgartirishlar ham kiritilgan.

O'zbekistonda soliqlar tizimi tarkibi

Umumdavlat soliqlari	Mahalliy soliqlar va yig'imlar
Yuridik shaxslar daromadiga (foydasiga) soliq. Jismoniy shaxslar daromadiga soliq. Qo'shilgan qiymat solig'i. Aktsiz solig'i. Er osti boyliklaridan foydalanish solig'i. Ekologiya solig'i. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq. Savdo va umumiy ovkatlanish tashkilotlaridan yalpi daromad solig'i. Bojxona boji. Davlat boji. Qimmatli qog'ozlarni ruyxatdan o'tkazish yig'imi. Boshqa daromadlar.	Mol-mulk solig'i. Er solig'i. Yagona soliq. Infratuzilmani rivojlantirish solig'i. Jismoniy shaxslarning transport yoqiligi uchun iste'mol solig'i. Jismoniy shaxslar chetdan tovarlar olib kelganligi uchun Yagona bojxona to'lovi. Savdo huquq yig'imi, shu jumladan alohida tovarlarni turlarini sotish litsenziya yig'imi. Ishbilarmonlik bilan shug'ullanuvchi huquqiy hamda jismoniy shaxslarni ruyxatdan o'tkazish yig'imi. Boshqa to'lovlar.

Jadvalda ko'rinib turibdiki, xozirgi kunda soliqlar kodeksda 8 ta umumdavlat (respublika) soliqlari va 5 ta mahalliy soliqlar ko'rsatilgan. o'zgartirishlar bilan ularning soni yig'implari ham kushib ko'rsatilgan. Soliq va yig'implar bir-biri bilan bog'liq bo'ladi, okibat natijasida ular huquqiy va jismoniy shaxslarning pul daromadlaridan olinadi. Demak, soliq va yig'implarning jami yiyoindisi summasi soliq oyoirligi tushunchasini keltirib chiqaradi.

Soliqlarni ob'yekti va iqtisodiy mohiyati bo'yicha guruhlash. Soliqlarni guruhlash iqtisodiyotga ijobiy va salbiy ta'sirlarni o'rganishning ilmiy va amaliy uslubidir.

Soliqlar soliqqa tortish ob'yektiga karab turt guruhga bulinadi:

Oborotdan olinadigan soliqlar

Daromaddan olinadigan soliqlar

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar

Er maydoniga karab olinadigan soliqlar .

Oborotdan olinadigan soliqlarga qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, bojxona va er osti boyliklari qiymatidan olinadigan soliqlar kiradi. Lekin oborot (aylanma) tushunchasi bizning qonunchiligimiz bo'yicha ilgariidek mahsulot realizatsiyasi oborotidan emas, balki mahsulotlarni yuklab yuborgan qiymat bilan ulchanadi (QQSda). YAlpi tushumdan olinadigan Yagona soliq ham oborotdan olinadigan soliqlarga kiradi.

Daromaddan olinadigan soliqlarga huquqiy shaxslarning daromadiga (foydasiga), jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq, savdo tashkilotlarining yalpi daromadidan soliqlari kiradi. Bu guruh soliqlarga infrastrukturani rivojlantirish solig'i ham kiradi.

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga mol-mulk solig'i, ekologiya, avtomobil mashitnalarini qayta sotish solig'i va boshqalar kiradi.

Er maydonlaridan olinadigan soliqlarga kishlok xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarning Yagona er solig'i va Yuridik (nokishlok xo'jalik) va jismoniy shaaxslarning er soliqlari kiradi. harajatlardan olinadigan soliqlarga esa ekologiya solig'i kiradi.

Iqtisodiy mohiyatiga karab soliqlar egri va to'g'ri soliqlarga yoki bevosita va bilvosta bulinadi. To'g'ri soliqlarni to'g'ridan to'g'ri soliq to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqni huquqiy to'lovchisi ham, haqiqiy to'lovchisi ham bitta shaxs bo'ladi. To'g'ri soliq yukini boshqalarga ortish holati bu erda bo'lmaydi. Bu soliqlarga hamma daromaddan to'lanadigan va barcha mulk soliqlari kiradi.

To'g'ri soliqlar dan to'g'ridan-to'g'ri daromaddan soliq to'langanligi uchun soliqlar stavkasining kamaytirilishi korxonalar daromadining ko'p qismini ularga koldirib, investitsiya faoliyatini kengaytirish imkonini yaratib, bozor iqtisodiyotini rivojlantiradi. Bu soliqlarning stavkalari ko'paytirilsa, biznes imkoniyatlari kamaya borib, iqtisodiy rivojlanishni susaytiradi. Demak bu guruh soliqlarning stavkalari to'g'ridan-to'g'ri bozor iqtisodiyoti bilan chambarchas boyolangandir.

Egri soliqlarni huquqiy to'lovchilari mahsulot (ish, xizmatni) yuklab yuboruvchilardir (xizmat ko'rsatuvchilardir). Lekin soliq oyoirligini xakikatdan ham byudjetga to'lovchilari tovar (ish, xizmat) ni iste'mol kiluvchilardir, ya'ni haqiqiy soliq to'lovchilar bu erda yashiringan. Bu soliqlar tovar (ish, xizmat) qiymati ustiga ustama ravishda qo'yiladi.

Bu soliqlarning ijobiy tomoni Respublikada ishlab chiqarilgan tovarlarni chetga chiqib ketishini chegaralaydi, mamlakat ichida tovarlar ko'p bo'lishiga yordam beradi. Egri soliqlar orqali tovarlar qiymati oshirilmasa, bozorlarda ularning takchilligi ortadi. Egri soliqlar stavkasining asosli ravishda oshirilishi korxonalar faoliyatining moliyaviy yakuniga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etmaydi, ya'ni

investitsion faoliyatini kiskartirmaydi. Ammo soliq stavkasi tahlil kilinmasdan oshirib yuborilsa korxonalar sotish kiyinchiligiga uchrab foyda olishni ham byudjetga to'lovlarni ham kamaytirishi mumkin.

Bu soliqlarning yana bir tomoni muomaladagi ortiqcha pul massasini kamaytirib, inkirozni jilovlab boradi. Birok bu soliqlar mehnat bilan band bo'lgan aholining real daromadini pasaytiradi. Korxonalarda to'g'ri soliqlar stavkasini kamaytirish hisobiga berilgan imkoniyat ko'proq mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirib, tovarlar assortimentining oshishini ta'minlashi kerak.

Jaxon soliq amaliyotida to'g'ri va egri soliqlar nisbatiga karab u yoki bu mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi yoki iqtisodiy kiyinchiliklarni borligini tahlil qilib berish mumkin. Masalan. AKSH da to'g'ri soliqlar salmog'ining byudjet daromadida 90 foizga yaqin bo'lishi bu erda rivojlangan bozor iqtisodiyoti mavjudligidan darak beradi.

Egri soliqlar tarkibiga QQS, aktsiz solig'i, bojxona boji, er osti boyliklaridan foydalanish soliqlari kiradi. Yuqorida aytib utilganidek, to'g'ri va egri soliqlar Yagona soliq tizimini tashkil etib bir-biri bilan o'zaro boyolangan. Umumiy soliq summasi o'zgarmagan holda birining stavkasini kamaytirish ikkinchisini stavkasini oshirishni talab etadi.

Soliqlarning umudavlat (respublika) va mahalliy soliqlarga bulinishi xukumat idoralarining respublika xukumati va mahalliy xukumatlarga bulinishi asosida kelib chiqadi. Har bir xokimiyat idoralari o'zlarining bajaradigan muhim vazifalaridan kelib chiqib, o'z byudjetiga va uni ta'minlaydigan soliqlarga ega bo'lishi kerak. Respublika xukumati umumdavlat mikyosida katta vazifalarni mudofaa, xavfsizlikni saqlash, tartib intizom infrastrukturasini yaratish, mehnatkashlarga ijtimoiy himoyasini tashkil etish va boshqa bir kator yirik vazifalarni bajaradi. Shuning uchun uning byudjeti ham soliqlari ham salmokli bo'lishi shart. QQS, aktsiz solig'i, Yuridik shaxslarning daromadi (foydasidan), fukarolar daromadidan olingan soliqlar respublika byudjetiga tushadi. Umumdavlat soliqlarining muhim xususiyati shundaki, respublika byudjetiga tushadigan soliqlar dan mahalliy byudjetlarni boshqarib borish uchun ajratma sifatida tushushi mumkin. Bordi-yu, ajratma etmasa subventsia yoki subsidiya beriladi. Agar kelgusi yil mahalliy byudjetlarning o'z manbalari (soliqlari) ko'payib kolsa, respublika soliqlar dan ajratma berishning xojati kolmaydi. Respublika va mahalliy soliqlar Yagona mohiyatiga ega bo'ladi, byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlardir.

Mahalliy soliqlar xukumatlar bajaradigan vazifalariga karab belgilanib, ularga doimiy va to'liq biriktirib beriladi. Mahalliy xukumatlar asosan mehnatkashlarga yaqin bo'lganligidan ularga ijtimoiy masalalarni maktab, soyolikni saqlash, madaniyat, maorif, shahar va kishloklar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Lekin bu soliqlar va yig'implar ularning byudjet harajatlarining 30-40 foizini koplaydi, holos. Keyingi vaqtlarda mahalliy byudjetlar daromadlari salmog'ini 50-60 foizga etkazish kabi xukumat karorlari mavjud. Mahalliy

byudjetlar daromadlarini ko'paytirish eng dolzarb masalalardan biridir. Faqat o'z daromad manbaiga to'liq ega bo'lgan mahalliy xukumatlar o'z faoliyatlarini to'liq amalga oshirishlari mumkin. Aks holda, har xil moliyaviy kamchiliklarga yo'l qo'yish zhtimoli bor. Mahalliy soliqlarning muhim xususiyati shundaki ular faqat shu xududning byudjetiga tushadi. Boshqa byudjetlarga ajratmalar berilmaydi.

Mahalliy byudjetlarning soliq va yig'implari kam bo'lganligidan bu byudjetlarning daromadlar va harajatlarini barqarorlashtirish (balanslashtirish) ancha murakkabdir. Bu masalani echishda ilgari ko'rsatganimizdek xududdan tushadigan soliqlar dan ajratmalar beriladi. (masalan, QQS, daromad solig'i va boshqalar). Amaliyotda shu soliqlar dan mahalliy byudjetlarga ular byudjetini barqarorlashtirish uchun 100 foizgacha ajratma bermasdan turib subventsiya (maqsadli yordam) berish hollari uchraydi. Vaholanki, mahalliy xukumatlarni o'z xududlaridan tushadigan soliqlarni o'ndirishga kiziktirish uchun 100 foizgacha ajratmalar berish maqsadga muvofikdir.

Subventsiya yoki subsidiya uslublari esa mahalliy xukumatlarning respublika xukumatiga murojaat etish lozimligini bildirib, ularni o'z xududlaridagi soliqlar to'liq o'ndirilishini kiziktirmaydi, ulardagi boki beyoamlilik fazilatini kuchaytiradi. Mahalliy xukumatlar o'z xoxishlaricha soliq va yig'implar kiritish huquqiga ega emas. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida ko'rsatilgan soliqlarning o'z xududlarida qo'llash yoki kullamaslik huquqi bor. Undan tashqari mahalliy soliqlar (mol-mulk va er solig'idan tashqari) va yig'implardan byudjetga tushgan summa atrofida soliq to'lovchilarga imtiyozlar berish huquqiga ega. Mahalliy soliqlar va yig'implarning byudjetga to'liq tushishini tashkil qilish ularning zimmasidagi asosiy vazifa hisoblanadi.

2. Yuridik shaxslarning soliqli va soliqsiz to'lovlari tavsifi. O'zbekiston Respublikasining davlat byudjetiga to'lanadigan soliq va yig'implarning hal qiluvchi qismini Yuridik shaxs soliqlari va boshqa to'lovlari tashkil etadi. Yuridik shaxslar Respublika (umumdavlat) byudjetiga quyidagi soliqlar va yig'implarni to'laydilar:

Yuridik shaxslarning daromadi (foydasiga) soliq;

Qo'shilgan qiymat solig'i;

Aktsiz solig'i;

Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;

Ekologiya solig'i;

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

Savdo va umumiy ovkatlanish korxonalarining yalpi daromadidan soliq;

Bojxona boji;

Davlat boji;

Qimmatli qog'ozlarni ruyxatdan o'tkazish yig'imi;

DAN yig'imi;

Jarimalar;

Boshqa to'lovlar;

Yuridik shaxslar mahalliy byudjetlarga quyidagi soliqlar va yig'implarni to'laydilar:

Kichik biznesning Yagona solig'i;

Mol-mulk solig'i;

(Reklama solig'i, avtotransport vositalarini olib sotganlik uchun soliq - 2003 yildan boshlab bekor kilindi).

Infratuzilmani rivojlantirish solig'i;

Savdo huquqini olish yig'imi;

Alohida tovarlarni sotish uchun litsenziya yig'imi;

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi Yuridik shaxslarni ruyxatdan o'tkazish yig'imi;

Dexkon bozorida bir yo'la yig'im;

Kishlok xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilar uchun Yagona er solig'i;

Nokishlok xo'jalik tashkilotlari uchun er solig'i;

Boshqa to'lovlar.

Yuridik shaxslar soliq to'lovchi bo'lishi uchun Yuridik shaxs maqomini olganidan tashqari, albatta biror ruxsat etilgan faoliyatdan daromad olgan bo'lishlari zarur yoki tovarlar (ish, xizmatlar) sotishdan oborotga ega bo'lishlari hamda statistika idoralarida, xokimiyatlardan ruyxatdan utgan (kodga ega) bo'lishlari shart har bir Yuridik shaxsga identifikatsion raqam beriladi.

Yuridik shaxs bo'ladi mulkka ega bo'lishlik, bordiyu soliqlardan yoki boshqa sub'ektlardan qarzdor bo'ladi kolsa, boshqa choralar kurilganda etarli bo'lmasa, ana shu mulklarini sotib (sud karoriga asosan) soliqlardan kutilish imkoniyati yaratiladi.

Yuridik shaxslar soliqlarini byudjet daromadlarini shakllantirish va pul muomalasini mustaxkamlashdagi ahamiyati.

Ilgari aytganimizdek, Yuridik shaxslarning byudjetlarga to'laydigan soliqlari *to'g'ri* va *egri* soliqlarga bulinadi.

To'g'ri soliqlar daromad (foyda) soliqlari va resurslar soliqlaridan tashkil topadi. Egri soliqlar esa qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, bojxona bojidan iboratdir. Yuridik shaxslarning bu soliqlari byudjet daromadlarini asosiy qismini tashkil etishi quyidagi jadval ma'lumotlarida kurinadi.

Yuridik shaxslar soliqlari ichida egri soliqlar salmog'i ortib borishi tendentsiyasiga ega, to'g'ri soliqlar salmog'i esa pasayib borish yunalishidadir. Bunday holat mahsulot ishlab chiqaruvchilarning hissasiga tushadigan soliq yukini kamaytirib, ularning ishlab chiqarish faoliyatini kuchaytiradi. Shu bilan birga to'g'ri va egri soliqlar byudjetning mustaxkam manbasiga aylanib uning uta ijtimoiy zarur bo'lgan harajatlarni o'z vaqtida va o'zluksiz moliyalashtirish imkonini yaratadi. Bularning ahamiyati bekiyos kattadir. Bu soliqlar siz byudjetlarni rejali moliyalashtirish iloji yuk.

Yuridik shaxslar soliqlari pul muomalasini mustaxkamlashda ham katta ahamiyatga ega. To'g'ri soliqlar Yuridik shaxslarning harajatlarga muljallangan

mablaglarini kiskartirib muomalaga oz pullarni chiqarishga olib keladi. Egri soliqlar esa tovarlar (ishlar, xizmatlar) tarkibida bo'ladi, baho hisobiga muomaladagi ortiqcha pullarni muomaladan oladi. Shunday qilib soliqlar pul muomalasini mustaxkamlashda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Soliqlarning oshishi tovar (xizmat, ish) taklifini oshiradi, talabni kamaytiradi. Bu esa pul emissiyasini kamaytiradi. Ammo taklifda real qiymati past bo'lganligidan inflyatsiyani paydo qilishi mumkin.

3. Soliqqa tortish maqsadida Yuridik shaxs tushunchasi. Soliq to'lovchilarni aniqlash asoslari.

O'zbekiston Respublikasi soliqlar tizimida soliq to'lovchilarni ikki guruhga bulinadi: Yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar; iqtisodiy mohiyatiga karab: to'g'ri soliqlar va egri soliqlarga. Byudjet bo'ginlariga tushishiga karab: umumdavlat soliqlari va mahalliy soliqlar va yig'implarga bulinadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida (13-modda) xilma-xil mulk shaklidagi birlashmalar, korxonalar va tashkilotlar qisqacha Yuridik shaxslar deb ataladi.

O'zbekiston Respublikasining asta sekin ijtimoiy himoyalangan erkin bozor iqtisodiyotiga uta borishi respublikada o'rta va kichik biznes faoliyatiga kulay sharoitlar yaratilayotganligi xilma-xil mulk shaklidagi: xususiy, kooperativ, shirkat, aksioner va kushma korxonalar orqali tadbirkorlikni rivojlantirishga keng sharoit yaratilmokda. Buning hammasi soliqqa tortish maqsadida Yuridik shaxslar sonini ko'payishiga olib kelmokda.

Yuridik shaxs deb o'zining ixtiyorida, qaramog'ida, foydalanishida mulkka ega bo'lgan, o'zining majburiyatlarini shu mulk bilan qaytara oladigan, buxgalteriya balansi hamda bankda hisobvaraqaiga ega bo'lgan shaxslarga aytiladi. Yuridik shaxslarning statistika organlarida o'z faoliyat kodlari ko'rsatilgan bo'ladi.

4.Hisoblangan soliqlar va yig'implar uchun Yuridik shaxslarning javobgarligi va ma'suliyati.

Yuridik shaxslar o'zlariga yuklatilgan soliqlarni hisoblash va byudjetga o'z vaqtida, to'liq to'lash javobgarligini olganlar. Ularning to'laydigan soliqlari asosan naqd pulsiz, ya'ni korxona, tashkilot, birlashmaning bankdagi hisob schyotlaridan mablagni uchirib, respublika yoki mahalliy byudjet schyotlariga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi. Qoida bo'yicha har qanday Yuridik shaxs o'z soliq va boshqa majburiy to'lovlarni belgilangan vaqtda byudjetga to'liq o'tkazishga majburlirlar. Buning uchun ular soliq va boshqa to'lovlarning muddati kelgan kungacha pullarni o'tkazish hujjatlari bo'lmish to'lov topshiriyoi, cheklarni yozib banklarga topshirgan bo'lishlari kerak.

Agar to'lov topshiriklari o'z muddatida yozilib banklarga topshirilmagan bo'ladi soliq idoralari o'zlarining inkasso-to'lov talabnomalari orqali o'ndirib oladilar.

har bir o'z vaqtida byudjetga o'tkazilmagan kun uchun o'tkazilishi kerak bo'lgan soliq summasi hisobidan 0,07 foiz penya hisoblanib soliqqa qo'shimcha ravishda byudjetga majburiy o'ndiriladi. Albatta penya summasining ko'payishi korxonaning moliyaviy holatiga salibiy ta'sir ko'rsatadi. Penya korxona uchun qo'shimcha soliqdir.

Shuning uchun har qanday xo'jalik sub'ektlari hisobchilari soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni ularda belgilangan to'lov muddatigacha o'z vaqtida to'lab borishlari shart. Bunda ayniqsa bo'nak (avans) to'lovlarga ko'proq e'tibor qaratilishi lozim, chunki QQS, daromadga (foydaga) soliq va boshqalarda bo'nak to'lovlar soni ko'p bo'lganligidan boqimandaning ko'payishiga olib keladi. xozirgi kunda bu boqimanda bilan kurash iqtisodiyotni barqarorlashtirishda muhim davlat tadbirlariga aylanmoqda.

Yuridik shaxslarning hamma soliqlari naqd pulsiz to'lanadi. Biroq, ayrim yig'imlar (davlat va bojxona bojlari) naqd pulli bo'lishi mumkin.

Yuridik shaxslar soliqlarini naqd pulsiz to'lanishi juda katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Pul o'tkazishlar tezlashadi, ijtimoiy harajatlar tejaladi.

3. Soliqqa tortish maqsadida jismoniy shaxs tushunchasi. Soliqqa tortish tizimida Yuridik va jismoniy shaxslarga qo'llanadigan tamoyillar. **Jismoniy shaxslar Yuridik shaxs maqomini olmagan shaxslardir. Bunday shaxslarga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo'lmaganlar va chet el mamlakatlari fuqarolari kiradi.**

O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga binoan soliqqa tortish maqsadida soliq to'lovchilar Yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarga bulingan. Davlat byudjeti daromadlarining 75 foizidan ortig'ini Yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar tashkil etadi. Jismoniy shaxslar to'laydigan soliq va yig'imlar esa karayib byudjet daromadining 25 foizini tashkil etadi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Qanday shaxslar Yuridik shaxs deb ataladi?
2. Qaysi soliqlar va yig'imlar Yuridik shaxslar to'laydigan Respublika soliqlari tarkibiga kiradi?
3. Qaysi soliqlar va yig'imlar Yuridik shaxslar to'laydigan mahalliy soliqlari tarkibiga kiradi?
4. Yuridik shaxslar to'laydigan soliqlarning qanday ahamiyatlari bor?
5. Jismoniy shaxslar tushunchasi va ular to'laydigan Respublika soliqlarini tarkibi?

6. Qaysi soliqlar va yig'imglar jismoniy shaxslar to'laydigan mahalliy soliqlari tarkibiga kiradi?
7. Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarning qanday ahamiyatlari bor?

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Soliq tizimi tushunchasi nimani ifoda etadi?
2. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini tavsiflang?
3. Soliqlar iqtisodiy mohiyatiga karab qanday guruhlanadi?
4. Soliqlarning umumdavlat va mahalliy soliqlarga ajratishning sababi nimada va ular qanday farklanadi?
5. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning farki nimadan iborat?
6. Byudjetdan tashqari jamgarmalarga majburiy to'lovlar va ularning soliqlarga qanday aloqasi bor?

III-Mavzu: Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimi Reja.

- 1. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i**
- 2. Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'i**
Er solig'ini to'lovchilar, soliq ob'yekti va bazasi
- 3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i**
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining mohiyati, soliq to'lovchilar, soliq ob'yekti va bazasi

1. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i

Soliq kodeksiga ko'ra soliq solinadigan mol-mulkga ega bo'lgan Jismoniy shaxslar, chet el fuqarolari, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilari bo'lib hisoblanishadi.

Soliq to'lovchilar, soliq ob'yekti va bazasi

Jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uyi-joyilari, kvartiralar, chorbog' va bog' uyilari, garajlar va boshqa imoratlari, binolar va inshootlari qiyimati soliq solish ob'yekti hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini inventarizatsiya qilish qiyimati soliq solish baza bo'lib hisoblanadi. Agar Jismoniy shaxslarning mol-mulkini bahosi tegishli vakolatli idoralar tomonidan aniqlanmagan bo'lsa, bunday holatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan mol-mulkning shartli qiyimati belgilanadi hamda o'rnatilgan stavkalar asosida soliqqa tortiladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi, ularni soliq to'lovchilarga Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va uning quyii organlari tomonidan belgilangan tartibda bildiriladi. Soliq stavkalari har yili keyingi moliya yili uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining makroiqtisodiyi ko'rsatkichlar prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risidagi qarori asosida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Soliq stavkalari va soliq imtiyozlari

2012 yil 1 yanvardan Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ining stavkalari quyidagicha belgilangan:

3.1-jadval

Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i STAVKALARI

Soliqqa tortish ob'yekti	Mol-mulkning inventarizatsiya qiymatiga nisbatan soliq stavkasi
Turarjoyilar, kvartiralar, dala hovli va bog' uyichalari, garajlar va boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar ularning qiymatidan kelib chiqib	0,9

Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash bo'yiicha tegishli organlar tomonidan belgilangan inventarizatsiya qiymati bo'lmasa soliq undirish uchun Toshkent shahri va viloyat markazlarida – 2100,0 ming so'm, boshqa shaharlar va qishloq joylarda – 920,0 ming so'm miqdoridagi mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi. Jismoniy shaxslarning mol-mulklari texnik inventarizatsiyalash byurosi (TIB) xodimlari tomonidan baholanadi.

Mulkida soliq solinadigan mol-mulk bo'yiicha pensionerlar uchun mol-mulk solig'i bo'yiicha soliq solinmayidigan eng kam miqdor umumiy maydonining 60 kv.metri hajmida belgilanadi.

Soliq qonunchiligiga ko'ra quyidagi Jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan imoratlari, binolari va inshootlariga soliq solinmayidi:

a) "O'zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajali SHuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning;

b) 1941-1945 yillardagi urush qatnashchilari va partizanlari, ularga tenglashtirilgan shaxslar, ichki ishlar va davlat xavfsizligi organlari tarkibida xizmat qilgan shaxslarning, harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda shtatdagi lavozimlarni egallagan shaxslar, Leningrad shahri qamalida bo'lganlarning va koncentracion lagerlarning sobiq yosh tutqunlari, xizmatni Afg'oniston Respublikasida va jangovar harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo'lgan qo'shinlarning cheklangan kontingenti tarkibida o'tagan harbiy xizmatchilar hamda o'quv va sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlarning;

v) o'n nafar va undan ortiq farzandi bor ayollarning;

g) CHernobily AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar olayotgan fuqarolarning (shu jumladan, u erga vaqtincha yoki xizmat safariga yuborilgan fuqarolarning);

d) soliq solinmayidigan maydon o'lchami doirasida pensionerlarning, shuningdek I va II guruh nogironlarining;

e) muddatli xizmat harbiy xizmatchilari va ularning oila a'zolarining - xizmatni o'tash davrida;

j) harbiy xizmat majburiyatlarini bajarishda yarador, kontuziya bo'lganlik yoki shikastlanganlik oqibatida yoki frontda bo'lish tufayli orttirilgan kasallik oqibatida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning ota-onalari va boshqa turmush qurmagan rafiqalarining (erlarining);

YUqorida nazarda tutilgan imtiyozlar mol-mulk egasining tanlashiga binoan, imtiyoz olish huquqini beruvchi zaruriy hujjatlar soliq organlariga taqdim

etilganda, mol-mulkning faqat bir ob'yektiga taalluqli bo'ladi. Bunda mol-mulk imtiyoz oluvchining mulki bo'lgan hollardagina taqdim etiladi.

Yil davomida to'lovchilarda mol-mulk solig'i bo'yiicha imtiyozga ega bo'lish huquqi paydo bo'lgan taqdirda ular ko'rsatilgan to'lovlardan ana shu huquq paydo bo'lgan oyidan boshlab ozod etiladilar.

Yil o'rtasida mol-mulk solig'i bo'yiicha imtiyoz huquqini yiqotganda soliq solish ushbu huquq yiqolgan oyidan keyingi oyidan boshlab amalga oshiriladi.

Soliqni hisoblab chiqarish va byudjetga to'lash tartibi

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladi.

Mol-mulk solig'i bo'yiicha imtiyozlar huquqiga ega bo'lgan shaxslar zarur hujjatlarni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etadilar.

Imoratlar, binolar va inshootlar uchun mol-mulk solig'i ularning har yil 1 yanvardagi holati yuzasidan texnik inventarizatsiyalashning hududiyi kadastr byurolari taqdim etadigan inventarizatsiya qiymatiga doir ma'lumotlar asosida hisoblab chiqariladi, bunday ma'lumotlar bo'lmagan taqdirda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilangan mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.

Bir necha mulkdorning ulushbayi asosidagi umumiy mulki bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun mol-mulk solig'i har bir mulkdor tomonidan ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to'lanadi. Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo'yiicha soliq ular barpo etilgan yoki olingan yildan keyingi yilning boshidan e'tiboran to'lanadi.

Meros bo'yiicha o'tgan mol-mulkdan soliq merosxo'rlardan meros ochilgan paytdan boshlab undiriladi. Mol-mulk yiq qilingan, butunlay vayron bo'lgan hollarda mol-mulk solig'i undirish ular yiq qilingan yoki butunlay vayron bo'lgan oyidan e'tiboran to'xtatiladi.

Mol-mulkka mulk huquqi taqvimiy yil davomida bir mulkdordan boshqasiga o'tganda soliqni birinchi mulkdor o'sha yilning 1 yanvaridan bu mol-mulkka mulk huquqini yiqotgan oyining boshigacha to'laydi, yangi mulkdor esa - mulk huquqini qo'lga kiritgan oyidan e'tiboran to'laydi.

Taqvimiy yil davomida imtiyozga ega bo'lish huquqi paydo bo'lgan taqdirda mol-mulk solig'i ana shunday huquq vujudga kelgan oyidan e'tiboran qayta hisoblab chiqiladi.

Mol-mulk solig'ini to'lash haqidagi to'lov xabarnomalari to'lovchilarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi. Hisoblangan yillik soliq miqdori teng ulushlarda ikki muddatda - 15 oktyabrdan kechiktirmay mahalliy byudjetga to'lanadi.

Agar soliq to'lovchi tomonidan ortiqcha summalar to'langan bo'lsa, soliq va yig'imlar bo'yiicha qarzlarni mavjud bo'lmasa, ushbu summalar uning yozma arizasiga ko'ra o'ttiz kun ichida soliq to'lovchiga qaytariladi yoki bo'lg'usi to'lovlar hisobiga qayd etiladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilari hisobi davlat soliq xizmati organlari tomonidan har bir yilning 1 yanvardagi holat bo'yiicha

shahar va tumanlar bo'yiicha, texnik inventarizatsiyalash hududiyi kadastr byurosida mavjud bo'lgan imoratlar egalari to'g'risidagi ma'lumotlarga binoan o'tkaziladi.

2. Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'i

Er solig'ini to'lovchilar, soliq ob'yekti va bazasi

Mikrofirmalar va kichik korxonalar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadigan faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirganlari taqdirda, soliqning qat'iy belgilangan summasini oldindan to'lab boradilar.

2012 yil uchun mikrofirmalar va kichik korxonalarga quyidagi Yagona soliq stavkalari belgilangan:

Ko'rsatkichlar	Tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotish xajmiga nisbatan foizlarda
Harid, ta'minot-sotuv korxonalari, brokerlik firmalari	30 (yalpi daromaddan)
Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi, notariuslar	50
Gastrol-kontsert bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega bo'lgan Yuridik va jismoniy shaxslar, Shuningdek norezidentlarni jalb etish yo'li bilan ommaviy tomasha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi korxonalar.	35
Yagona er solig'i to'lashga utmagan kishlok xo'jalik korxonalari.	6
Iqtisodiyotning boshqa soxalaridagi korxonalar	12
Loteriyalar, totalizatirlar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa uyinlarni tashkil etuvchi Yuridik shaxslar.	20 % yalpi tushumdan

1) Lizing kompaniyalari lizing beruvchining daromadiga (marjasiga) nisbatan foizda soliq to'laydilar.

Yagona soliq to'lashga utishni istagan korxonalar chorak boshlanishidan bir oy oldin ruyxatdan utgan soliq idoralariga yozma ravishda ariza berishlari kerak.

Korxonalarni Yagona soliqqa o'tkazish to'g'risida yoki asoslangan tarzda uni rad etish to'g'risidagi karor soliq idoralari tomonidan ariza berilgan kundan e'tiboran 15 kun ichida amalga oshiriladi. YAngi to'zilgan korxonalar uchun ruxsat olish talab etilmaydi.

Yagona soliqni hisoblash va byudjetga to'lash tartibi

Kichik korxonalarning Yagona solig'i Yuridik shaxslar tomonidan har chorakda quyidagi oddiy shaklda to'ziladi.

Masalan, 2012 yil I va II chorak soliq hisobi:

Kurstkichlar	YAlpi tushum	
	I chorak	II chorak
YAlpi tushum jami (m.sum)	900	1400

Yagona soliq stavkasi (%)	12	12
Yagona soliq summasi (m.sum)	108	164
Ilgarigi davr uchun hisoblangan (m.sum)	-	108
Qo'shimcha hisoblandi	108	56
Kamaytirishga tegishli	-	-

Mikrofirmalar va kichik korxonalarning Yagona solig'i har chorakda choraklik moliyaviy hisobotlar topshirish uchun belgilangan muddatda to'lanadi. Bo'nak to'lovlar bo'lmaydi.

Soliq to'lovchilar Yagona soliqni to'g'ri, to'liq hisoblash va byudjetga o'tkazish javobgarligini soliq qonunchiligi bo'yicha oladilar.

YAlpi daromadni yoki tushumni kamaytirish soliq ob'yektini yashirish (kamaytirish) deb karaladi va tegishli moliyaviy jazolarga tortiladi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Yagona soliqqa utishning ahamiyatlari qanday?
2. qanday korxonalar Yagona soliq to'lashga utishlari mumkin?
3. qanday korxonalar Yagona soliq to'lovchilari bula oladi?
4. Soliqqa tortish ob'yekti nimalardan iborat?
5. Soliq stavkalarini kim belgilaydi, nimalarga bog'liq?
6. Soliq kaysi byudjetga tushadi?
7. Yagona soliqni hisoblash uchun qanday ko'rsatkichlar kerak?
8. Soliq kaysi davr uchun hisoblanadi?
9. Yagona soliq kaysi muddatda byudjetga o'tkaziladi?

VI - Mavzu: Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar

Reja:

6.1. YAgona ijtimoiyi to'lov va Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari

6.2. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiyi ajratma

Majburiyi ajratma to'lovchilari, ob'yekti, bazasi va stavkalari

6.3. Respublika yio'l jamg'armasi

6.4. Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasi

Majburiyi ajratmani to'lovchilar

YAgona ijtimoiyi to'lov O'zbekistonda 2004 yildan amal qilib kelinmoqda. Soliq kodeksining 305-moddasiga binoan yagona ijtimoiyi to'lovni to'lovchilar bo'lib, yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasi rezidentlari, O'zbekiston

YAgona ijtimoiyi to'lovni to'lovchilari, to'lov ob'yekti, bazasi hamda to'lovdan chegirmalar

Respublikasida faoliyatni doimiyi muassasa, chet ellik yuridik shaxslarning vakolatxonalari va filiallari orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari hamda Jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Jismoniy shaxslar – O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida doimiyi yashovchi va ishlovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari (bundan keyin matnda sug'urta badallari deb yuritiladi) to'lovchilardir.

Sug'urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati, shuningdek ularning to'g'ri hisoblab chiqarilishi uchun javobgarlik ish beruvchi zimmasiga yuklatiladi.

YAgona ijtimoiyi to'lovning va sug'urta badallarini hisoblash uchun ob'ekt bo'lib, ish haqi tarzidagi daromadlar hisoblanadi.

YAgona ijtimoiyi to'lovni va sug'urta badallarini hisoblab chiqarish uchun baza imtiyoz sifatida belgilangan to'lovlar chegirib tashlangan ish haqi tarzida to'lanadigan daromadlar summasi sifatida belgilanadi.

YAgona ijtimoiyi to'lov va sug'urta badallari bazasi hisoblanayotganda quyidagi to'lovlar chegirib tashlanadi:

1) amaldagi soliq kodeksining 174-moddasi 5, 8, 9, 11 va 12-bandlarida ko'rsatilgan kompensaciya to'lovlari;

2) xodimga hisoblanadigan va uning roziligi bilan tegishli byudjet yoki xayiriya jamg'armalarga (shanbaliklar, yakshanbaliklar va shu kabilar uchun) o'tkaziladigan ish haqi tarzidagi daromadlar;

3) xodimning muhim sanasi, uzoq yillik xizmati, jamoat faoliyatida erishgan yutuqlari munosabati bilan unga beriladigan rag'batlantirish tarzidagi to'lovlar;

4) xodimga tabiiyi ofat, boshqa favqulodda holatlar munosabati bilan to'lanadigan to'lovlar;

5) yosh mutaxassislariga oliyi o'quv yurtini tamomlaganlaridan so'ng ta'til vaqti uchun yuridik shaxslar hisobidan to'lanadigan nafaqalar.

YAgona ijtimoiyi to'lov va sug'urta badallari har oyida soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

YAgona ijtimoiyi to'lovni va sug'urta badallarini hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi

YUridik shaxslarning mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiyi to'lov stavkasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 dekabrda PQ-744-sonli qaroriga asosan 24 foiz miqdorida belgilangan.

YUridik shaxslarning mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiyi to'lov davlat maqsadli jamg'armalari hamda Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi o'rtasida belgilangan tartibga muvofiq quyidagi miqdorlarda taqsimlanadi:

- byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga - 23,5 %;
- davlat bandlikka ko'maklashish fondiga - 0,3 %;
- kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashiga - 0,2 %.

Sug'urta badallari esa xodimlarning ish haqiga nisbatan 2,5% miqdorida belgilangan.

YAgona ijtimoiyi to'lov yuridik shaxslarning mablag'lari hisobidan to'lanadi, sug'urta badallari esa xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadi va soliq agentlari tomonidan jamg'armaga o'tkaziladi.

YAgona ijtimoiyi to'lovning hisob-kitobi (14-ilova) soliq bo'yiicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyining 25-kunidan kechiktirmayi, yil yakunlari bo'yiicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmayidigan soliq to'lovchilar tomonidan – har oyida hisobot davridan keyingi oyining 10-kunidan kechiktirmayi, yil yakunlari bo'yiicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Sug'urta badallarining hisob-kitobi ro'yixatdan o'tkazilgan joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyining 25-kunidan kechiktirmayi taqdim etiladi.

YAgona ijtimoiyi to'lov va sug'urta badallari yuridik shaxslar tomonidan quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

- yagona ijtimoiyi to'lov – har oyida, keyingi oyining 10-kunidan kechiktirmayi;
- sug'urta badallari – ish haqiga pul mablag'lari olish uchun bankka hujjatlarni taqdim etish vaqtida.

YAkka tartibdagi tadbirkorlar hamda yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jalik-larining a'zolari sug'urta badallari miqdorini oyiiga eng kam ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda, qoramollarni etishtirish bilan shug'ullanuvchi dehqon xo'jaliklarining a'zolari esa oyiiga eng kam ish haqining 50 foizidan kam bo'lmagan miqdorda belgilayidilar. Dehqon xo'jaliklarining a'zolari sug'urta badallarini ixtiyoriy ravishda amalga oshiradilar.

YOshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lgan, shuningdek I va II guruh nogironlari bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari uchun sug'urta badalining miqdori eng kam ish haqining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak. Sug'urta badallarini to'lash har oyida keyingi oyining 10-kunidan kechiktirmayi amalga oshiriladi. To'lov topshiriqnomasida soliq to'lovchining identifikatsiya raqami va to'lov to'lanayotgan davr albatta ko'rsatilishi kerak. Agar davr ko'rsatilmagan bo'lsa, to'lov u amalga oshirilayotgan oyi uchun to'langan deb hisoblanadi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. YAgona ijtimoiyi to'lov to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanishadi?
2. Fuqarolarning ish haqidan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiyi sug'urta badallarining to'lovchilari kimlar?
3. YUridik shaxsni tashkil qilmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi Jismoniy shaxslar byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining sug'urta badallari to'lovchilari bo'laoladimi?
4. YAgona ijtimoiyi to'lov mablag'lari qanday tartibda jamg'armalarga taqsimlanadi?
5. YAgona ijtimoiyi to'lov va Pensiya jamg'armasiga sug'urta badalini ob'yekti va bazasi qanday aniqlanadi?
6. YAgona ijtimoiyi to'lovdan qanday chegirmalar nazarda tutilgan?
7. YAgona ijtimoiyi to'lovni va sug'urta badallari qanday tartibda hisoblab chiqariladi?
8. YAgona ijtimoiyi to'lovni va sug'urta badallarini to'lash tartibi tushuntiring?
9. Mikrofirma va kichik korxonalar yagona ijtimoiyi tulovni va sug'urta badallarini qayisi muddatda to'lashadi?
10. Ayirim toifadagi Jismoniy axslar uchun sug'urta badallarini hisoblab chiqarish va to'lashning o'ziga xos xususiyatlari tushuntiring?

6.2. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiyi ajratma

Majburiyi ajratma to'lovchilari, ob'yekti, bazasi va stavkalari

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari pensiya yoshiga etganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yio'qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiyi yordam olish bo'yiicha konstituciaviyi huquqga egadirlar. Ushbu huquqiya me'yorlar O'zbekiston Respublikasining 1993 yiil 3 sentyabrda qabul kilgan «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minot to'g'risida»gi Qonunida ham belgilab berilgan.

Pensiya ta'minoti tizimidagi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish davlat ijtimoiyi sug'urtasi bo'yiicha majburiyi badallar to'liq yiig'ilishini samarali tashkil qilish, amaldagi boshqaruv tuzilmalarini qisqartirish hamda pensiyalar va nafaqalar to'lashga yio'naltiriladigan mablag'lardan foyidalanish samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2000 yiil 15 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minotini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 444-sonli qarori bilan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga mablag' to'plash va mablag' to'liq tushishi ustidan nazorat qilish funkciyasi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi zimmasiga yuklatildi va byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiyi to'lovlar soliqlarga tenglashtirildi. Pensiya jamg'armasining daromadlari va xarajatlari har yiili O'zbekiston Respublikasining yiig'ma byudjeti tarkibiga kiritiladigan bo'ldi hamda Pensiya jamg'armasiga majburiyi ajratmalarni hisoblab chiqish va to'lash tartibi buzilganligi uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga nisbatan moliyaviyi jazolar qo'llanilishi, shu jumladan to'lovlar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun penya hisoblanishi qonun hujjatlarida belgilab qo'yiildi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga mablag'lar to'plash tartib qoidalari Vazirlar Mahkamasining 2000 yiil 23 dekabrdagi "Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va sarflash tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 498-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida 2004 yiilgacha amalga oshirilib keldi.

Vazirlar Mahkamasining 2003 yiil 25 dekabrdagi 567-sonli qarori bilan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratmalarni hisoblash va to'lash tartiblarini soddalashtirish maqsadida, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratmalar, bandlik fondiga ajratmalar va kasaba uyushmalari jamg'armasiga ajratmalar birgalikda yagona ijtimoiyi to'lov nomi bilan yuritiladigan bo'ldi.

Soliq kodeksining 312-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiyi ajratmani to'lovchilari hisoblanadi.

Quyidagilar byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiyi ajratmaning to'lovchilari bo'lmayidi:

- notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno;
- yagona soliq to'lovini to'lovchi yuridik shaxslar.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiyi ajratmaning ob'yekti va bazasi quyidagicha belgilangan.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiyi ajratmaga tortish ob'ektlari

№	To'lovchilar	Ajratmaga tortish ob'yekti
----------	---------------------	-----------------------------------

1.	Vositachilik, topshiriq shartnomalari va vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga doir boshqa shartnomalar bo'yiicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar	QQS chegirilgan holda, vositachilik haqi summasi
2.	Tayyorlov, ta'minot-sotish tashkilotlari	QQS chegirilgan holda tovar ayilanmasi hajmi
3.	Ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiradigan respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralari va ularning hududiyi (viloyat, viloyatlararo va tumanlararo) bazalari	yalpi daromad
4.	"O'zdonmahsulot" AK korxonalari (g'alla qabul qilish korxonalari va don qabul qilish faoliyatini amalga oshiruvchi donni qayita ishlash korxonalari)	QQS chegirilgan holda ta'minot-sotish ustamasi va chegirmasi
5.	Kredit va sug'urta tashkilotlari	daromad
6.	Moliyaviyi ijara (lizing) xizmatlarini ko'rsatadigan korxonalar	foizli daromad
7.	Kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalari	mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi hajmi, QQSni va tegishincha issiqlik ta'minoti korxonalari uchun - issiqlik energiyasi, suv ta'minoti korxonalari uchun - suv, gaz ta'minoti korxonalari uchun - tabiiy gazning xarid qiyimatini chegirgan holda
8.	Qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiyi-tadqiqot tashkilotlari	QQSni chegirgan holda o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar hajmi
9.	Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari korxonalari	mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi hajmi, QQS va akciz solig'ini chegirgan holda

Yuridik shaxslar bir necha xil ob'ektlarga ega bo'lgan hollarda, ular ob'ektlarning alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli ob'ektlar uchun belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiyi ajratmalarni to'lashi shart. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 dekabrda PQ-744-sonli qaroriga asosan Byudjetdan tashqari Pensiya

jamg'armasiga majburiyi ajratma 2008 yiil 1 yanvardan 1,0% miqdorida belgilandi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'ar-masiga majburiyi ajratmalar har oyida soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Byudjetdan tashqari Pen-siya jamg'armasiga majbu-riyi ajratmalarni hisoblab chiqarish, ularning hisob-kitoblarini taqdim etish tartibi

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiyi ajratmalarning hisob-kitobi (15-ilova) soliq bo'yiicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan:

-mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – yiilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyining 25-kunidan kechiktirmayi, yiil yakunlari bo'yiicha esa yillik moliyaviyi hisobot topshiriladigan muddatda;

-mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmayidigan soliq to'lovchilar tomonidan – har oyida, hisobot davridan keyingi oyining 25-kunidan kechiktirmayi, yiil yakunlari bo'yiicha esa yillik moliyaviyi hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiyi ajratmalarni to'lash hisobot davridan keyingi oyining 25-kunidan kechiktirmayi amalga oshiriladi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi qachon va nima maqsadda tashkil etilgan?
2. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratmalarning to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanadi?
3. Notijorat tashkilotlar qandayi holatda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining to'lovchilari bo'lishadi?
4. YAgona soliq to'lovini to'lovchilar byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratma to'lashadimi?
5. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratmalarning ob'yekti va bazasi qandayi topiladi?
6. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiyi ajratmalar qandayi manbalardan tashkil topadi?
7. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiyi ajratmalar stavkalari qayisi davlat organi tomonidan belgilanadi?
8. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiyi sug'urta badallari necha foizni tashkil etadi?
9. Jamg'armaga to'lovlarni hisoblash tartibi qandayi amalga oshiriladi?

10. Jamg'armaga to'lovlarni to'lash muddati qachon?

6.3. Respublika yio'l jamg'armasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning 2003 yil 19 avgustdagi PF-3292-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 21 avgustdagi 361-sonli "O'zavtoyio'l davlat akciyadorlik kompaniyasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yio'l jamg'armasi faoliyatni tashkil etish masalalari to'g'risida" gi qaroriga asosan 2003 yil 1 oktyabridan boshlab yio'l xo'jaligini boshqarish tuzilmasidagi Respublika, viloyat va mahalliy yio'l jamg'armalari tugatildi va ularning o'rnida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Respublika yio'l jamg'armasi tuzildi. Ushbu jamg'armaga mablag'larni yiig'ish va uni nazorat qilish vazifasi Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasi zimmlariga yuklatildi.

Majburiyi ajratmalar to'lovchilari, ob'yekti va stavkalari

Soliq kodeksining 316-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar yio'l jamg'armasiga majburiyi ajratmalarni to'lovchilari bo'lib hisoblanadi.

Yio'l jamg'armasiga majburiyi ajratmalarning to'lovchilari bo'lib quyidagi yuridik shaxslar hisoblanmaydi:

- notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno;
- yagona soliq to'lovi to'lovchi yuridik shaxslar;
- ixtisoslashtirilgan yio'l xo'jaligi boshqaruvi organi tuzilmasiga kiradigan korxonalar, Respublika yio'l jamg'armasi mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan umumiy foyidalanishdagi avtomobil yio'llarini saqlash, ta'mirlash, rekonstrukciya qilish va qurish bo'yiicha ishlarni bajarganlik uchun olingan daromadlari bo'yiicha.

Sof tushum yio'l jamg'armasiga majburiyi ajratmalarning soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan bazasi qilib belgilangan.

Respublika yio'l jamg'armasiga majburiyi ajratmalarning soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan bazasi quyidagilardir:

- 1) kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalari uchun – mahsulotlarning (ishlarning, xizmatlarning) qo'shilgan qiyimat solig'i va tegishincha issiqlik ta'minoti korxonalari uchun issiqlik quvvatining, suv ta'minoti korxonalari uchun suvning, gaz ta'minoti korxonalari uchun tabiiy gazning xarid qiyimati chegirib tashlangan holda realizaciya qilingan hajmi;
- 2) qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyih-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun – o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyih-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarining qo'shilgan qiyimat solig'i chegirib tashlangan holdagi qiyimati;
- 3) vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi, shu jumladan tovarlarni sotish bo'yiicha, vositachilik va topshiriq shartnomasi bo'yiicha hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yiicha vositachilik xizmatlari

ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun – ko'rsatilgan xizmatlar uchun qo'shilgan qiyimat solig'i chegirib tashlangan holdagi mukofot summasi;

4) savdo faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar uchun – tovar oboroti;

5) kredit tashkilotlari va sug'urta tashkilotlari uchun – soliq kodeksining 148- va 150-moddalariga muvofiq aniqlanadigan daromadlari;

6) asosiy faoliyati mol-mulkni lizingga berishdan iborat bo'lgan yuridik shaxslar uchun – moliyaviy ijara (lizing) bo'yiicha foizli daromad summasi.

Yuridik shaxslar turli xil ob'ektlarga ega bo'lgan hollarda, ular ob'ektlarning alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli ob'ektlar uchun belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda Respublika yil jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashi lozim.

Majburiy ajratmalar stavkalari 2012 yilda quyidagicha belgilangan

№	To'lovchilar	To'lash ob'yekti	To'lash nisbatan ob'yektiga stavkalar %larda
1	2	3	4
1.	Vositachilik, topshiriq shartnomalari va vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga doir boshqa shartnomalar bo'yiicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan korxona va tashkilotlar	QQSni chegirgan holda vositachilik haqi summasi	1,0
2.	Tayyorlov, ta'minot-sotish tashkilotlari	QQSni chegirgan holda tovar ayilmasi hajmi	1,0
3.	Ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiradigan respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza - kontoralari va ularning hududiyi (viloyat, viloyatlararo va tumanlararo) bazalari	YAlpi daromad	1,0
4.	“O'zdonmahsulot” AK korxonalari (g'alla qabul qilish va don qabul qilish faoliyatini amalga oshiruvchi donni qayita ishlash	QQSni chegirgan holda ta'minot-sotish ustamasi va chegirmasi	1,0

	korxonalari)		
5.	Kredit va sug'urta tashkilotlari	daromad	1,5
6.	Moliyaviyi ijara (lizing) xizmatlarini ko'rsatadigan korxonalar	foizli daromad	1,5
7.	Kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalari	mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi hajmi, QQSni va tegishincha issiqlik ta'minoti korxonalari uchun - issiqlik energiyasi, suv ta'minoti korxonalari uchun - suv, gaz ta'minoti korxonalari uchun - tabiiy gazning xarid qiyimatini chegirgan holda	1,5
8.	Qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyihqa-qidiruv va ilmiyi-tadqiqot tashkilotlari	QQSni chegirgan holda o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar hajmi	1,5
9.	Avtotransport korxonalari	QQSni chegirgan holda mahsulot (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi hajmi	2,5

Respublika yio'l jamg'armasiga majburiyi ajratmalar soliq solinadigan bazadan va tasdiqlangan stavkadan kelib chiqqan holda har oyida hisoblab chiqariladi.

Majburiyi ajratmalarni hisoblash va to'lash tartibi

Respublika yio'l jamg'armasiga majburiyi ajratmalarning hisob-kitobi (16-ilova) soliq bo'yiicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyining 25-kunidan kechiktirmayi, yil yakunlari bo'yiicha esa yillik moliyaviyi hisobot topshiriladigan muddatda;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmayidigan soliq to'lovchilar tomonidan – har oyida, hisobot davridan keyingi oyining 25-kunidan kechiktirmayi, yil yakunlari bo'yiicha esa yillik moliyaviyi hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Respublika yio'l jamg'armasiga majburiyi ajratmalarni to'lash hisobot davridan keyingi oyining 25-kunidan kechiktirmayi amalga oshiriladi.

Soliq kodeksining 54-bobiga asosan Respublika yio'l jamg'armasiga majburiyi ajratmalardan tashqari yig'imlar ham to'lanadi.

Yio'l jamg'armasiga yig'imlarni to'lovchilar, ob'yekti va bazasi

Respublika yio'l jamg'armasi yig'im-lariga quyidagilar kiradi:

- avtotransport vositalarini olgan-lik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im;
- chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respubli-kasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im. Amaldagi soliq kodeksining 321-moddasiga binoan avtotransport vositalarini oluvchi yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirishni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari avtotransport vositalarini olganlik yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im to'lovchilari bo'lib hisoblanadi. CHet davlatlar avtotransport vositalarining egalari yoki foydalanuvchilari ushbu vositalarning O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'imi to'lovchilari bo'lib hisoblanadi.

Yig'imlar uchun ob'ekt quyidagilardir:

- avtotransport vositalarini olish yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish;
- chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tish.

Yig'imlar undiriladigan baza sifatida quyidagilar belgilangan:

- olingan yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalarining qiyimati;
- O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganida yoki uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganida chet davlatlarning avtotransport vositalari.

Avtotransport vositalarini olish yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig'imni to'lashdan quyidagilar ozod qilinadilar:

Yig'imlar stavkasi, imtiyozlar va yig'imlarni to'lash tartibi

- 1) ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan qo'l bilan boshqarishga moslashtirilgan engil avtomobilni yoki motoaravachani oluvchi barcha guruhlardagi nogironlar;
- 2) ixtisoslashtirilgan savdo tarmog'idan O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan yangi avtomobil oluvchi fuqarolar, shuningdek yaqin qarindoshlaridan hadya shartnomasi yoki meros asosida avtomobillar va motoaravachalarni oluvchi fuqarolar;
- 3) umumiyi foydalanishdagi avtomobil yio'llarini saqlash, ta'mirlash, rekonstrukciya qilish va qurishni amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan yio'l xo'jalik boshqaruvi organi tuzilmasiga kiradigan korxonalar – mazkur ishlarni amalga oshirishda bevosita foydalaniladigan avtotransport vositalari bo'yiicha;
- 4) faoliyatining asosiysi turi yio'lovchilar tashish bo'lgan, qonun hujjatlariga muvofiq yio'lovchilar tashish uchun belgilangan namunadagi licenziyaga ega bo'lgan avtotransport korxonalari – yio'lovchilar tashishni amalga oshiruvchi

transport vositalari bo'yiicha (engil avtomobillar va yio'nalishli taksilardan tashqari);

5) yuridik shaxslar – qirq tonnadan ortiq yuk ko'taradigan, olingan kon avtosamosvallari bo'yiicha;

6) homiyilik (beg'araz) yordami sifatida avtomobillarni olgan (sotib olgan) bolalar uyilari, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar, qariyalar va kichik yoshdagi nogironlar uchun internat-uyilar, shuningdek byudjet hisobidan moliyalashtiriladigan tibbiyot muassasalari;

7) yuridik shaxslar – avtotransport vositalarini bitta tizim (davlat va xo'jalik boshqaruvi organi) ichida balansdan balansga bepul o'tkazishda;

8) qayita tashkil etish natijasida avtotransport vositasini olgan huquqiyi voris;

9) avtotransport vositalarini 3–5-bandlarida ko'rsatilgan yuridik shaxslarga lizingga berish uchun oluvchi lizing beruvchilar.

Respublika yio'l jamg'armasiga undiriladigan yiig'implarning 2012 yildagi stavkalari

№	YIig'implar turlari	foizlarda
1.	Sotib olingan va vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari qiyimatidan ushbu vositalarni sotib olganlar (foydalanuvchilar) tomonidan O'zbekiston Respublikasi IIV organlarida ro'yixatdan o'tkazish chog'ida to'lanadigan yiig'implar:	
1.1	- sotib olingan va vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari (shu jumladan maxsus avtomobillar) narxidan. Bundan 1.2- bandda ko'rsatilganlari mustasno	6,0
1.2	- sotib olingan va vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari narxidan: qirqtagacha o'tirish joyilari bo'lgan avtobuslar; 10 tonnagacha yuk ko'taradigan yuk avtotransport vositalari	20,0

Avtotransport vositalarini olganlik yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yiig'im ular O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida davlat ro'yixatidan o'tkazilayotganda, qayita ro'yixatdan o'tkazilayotganda quyidagi hollarda undiriladi:

1) avtotransport vositalari oldi-sotdi, almashtirish, hadya, bepul berish shartnomasi asosida, shuningdek qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa bitimlar asosida mulk qilib olinganda;

2) avtotransport vositalari yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda dividendlar sifatida olinganda;

3) avtotransport vositalari lizingga berish uchun olinganda. Ylig'im taraflarning yozma kelishuviga ko'ra lizing beruvchidan yoki lizing oluvchidan undiriladi. Lizing beruvchi O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan taqdirda, ylig'im lizing oluvchidan undiriladi. Lizing shartnomasi muddati tugaganidan so'ng mazkur lizing (ikkilamchi lizing) shartnomasi predmeti bo'lgan avtotransport vositasi qayita ro'yixatdan o'tkazilayotganida takroran ylig'im undirilmaydi;

4) avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganda.

Avtotransport vositalarini olish yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun ylig'im to'langanligi to'g'risidagi hujjat taqdim etilmagan holda avtotransport vositalarini ro'yixatdan o'tkazish, qayita ro'yixatdan o'tkazish yoki texnik ko'rikdan o'tkazish amalga oshirilmaydi.

CHet davlatlar avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun ylig'im chet davlatning avtotransport vositasi O'zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganida undiriladi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Respublika yio'l jamg'armasi qachon va nima maqsadda tashkil topgan?
2. Respublika yio'l jamg'armasiga majburiyi ajratmalarning to'lovchi-lari kimlar?
3. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt bir nechta faoliyat turi bilan shug'ullansa, jamg'armaga ajratma qandayi tartibda amalga oshiriladi?
4. Ajratma yuridik shaxslarning qayisi daromadlaridan olinadi?
5. Xorijiyi davlatlarning avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganda undiriladigan to'lov qandayi tartibda amalga oshiriladi?
6. Stavkalar qandayi tartibda va qayisi mezonlarga asosan belgilanadi?
7. Tijorat banklari daromadlaridan jamg'armaga necha foiz to'lovlarni amalga oshiradi?
8. Respublika yio'l jamg'armasiga tushumlarni tushushini nazorat qilish qayisi davlat organi zimmasiga yuklatilgan?
9. Majburiyi ajratmalarni to'lovchilar hisob-kitoblarni qayisi tashkilotga taqdim etadilar?
10. Majburiyi ajratmalarni to'lashdan kimlar ozod etiladi?

6.4. Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasi

Majburiyi ajratmani to'lovchilar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning 2004 yil 21 maydagi Farmoniga muvofiq maktab ta'limini 2004-2009 yillar davomida rivojlantirish maqsadida byudjetdan tashqari maktab ta'limi Jamg'armasi tashkil etildi.

Maktab ta'limini rivojlantirish majburiyi to'lovi maktab ta'limini rivojlantirish 2004-2009 yillar Davlat umummilliy dasturiga kiritildi va ular davlat soliqlari va yig'imlariga tenglashtirilgan.

Qonunchilikka asosan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi mulkchilik shaklidan qat'iyi nazar yuridik shaxslar maktab ta'limini rivojlantirishga majburiyi ajratmalar to'lovchilari bo'lib hisoblanadi.

Soliq solishning alohida tartibiga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek ko'rsatilgan ajratmalar to'lovchilari bo'lib hisoblanadi.

Yuridik shaxslar deb o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek mustaqil balans va hisob raqamiga ega bo'lgan korxona, tashkilot va muassasalarning barcha turlari hisoblanadi.

Maktab ta'limini rivojlantirish uchun kelib tushadigan mablag'lar byudjetdan tashqari Maktab ta'limi jamg'armasining O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Toshkent shahri Bosh boshqarmasining hisob-kitob-kassa markazida ochiladigan maxsus hisob raqamida jamlanadi.

Majburiyi ajratmalarga tortish ob'yekti

Maktab ta'limini rivojlantirishga majburiyi ajratmalarga tortish ob'yekti bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- a) yalpi daromad - ulgurji va chakana savdo qiluvchi korxona muassasalari uchun;
- b) komission taqdirlash summasi – vositachilik xizmatini ko'rsatuvchi dilerlar va dallollik korxonalar uchun;
- v) qo'shilgan qiyimat solig'ini chegirgan holda, o'z kuchlari bilan amalga oshirgan ishlar hajmi - qurilish, qurilish-montaj, qurilish-ta'mirlash, loyiha qilish, izlanish va va ilmiy-tekshirish tashkilotlari uchun;
- g) daromad – tijorat banklari, kredit uyushmalari, sug'urta tashkilotlari, videosalonlar (videoko'rsatuv shoxobchalari), kim oshdi savdolari, kazinolar, nusxa olish hisobiga daromad oladigan korxonalar, video- va audio manbalarni ijaraga beruvchilardan, pullik yutuqlar o'tkazadigan o'yiin avtomatlarini ekspluatatsiya qiluvchilar, lotereyalar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yiinlarni hamda ommaviy konsert-tomosha tadbirlarini o'tkazuvchi tashkilotlar uchun;
- d) lizingga beruvchining daromadi (marja) – lizing kompaniyalari uchun;
- e) tovar ayilani hajmi – savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, tayyorlov, ta'minlov-savdo tashkilotlari uchun;
- j) mahsulotning (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi hajmidan, bunda issiqlik ta'minlovchi korxonalari–issiqlik energiyasi, suv, gaz bilan ta'minlovchi tabiiy

gazlarning sotib olish narxi chegirib tashlanganda – kommunal xo'jaligining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalari uchun;

z) qo'shilgan qiyimat solig'i va akciz solig'i chegirib tashlanganda, realizaciya qilingan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmi – iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi korxonalar uchun.

Maktab ta'limini rivojlantirishga majburiyi ajratmalar stavkasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Majburiyi ajratma stav-kasi va imtiyozlar, uni hisoblash hamda to'lash tartibi

Maktab ta'limini rivojlantirishga majburiyi ajratmalar to'lashdan notijorat tashkilotlar ozod etiladi, ularning tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadi va tushumlari bundan mustasno. Jamg'armaga to'lanishi lozim bo'lgan maktab ta'limini rivojlantirishga majburiyi ajratmalar summasi belgilangan majburiyi ajratmalarga tortish ob'yekti va stavkasidan kelib chiqqan holda to'lovchilar tomonidan aniqlanadi.

Majburiyi ajratmalarning hisob-kitoblari (17-ilova) to'lovchilar tomonidan davlat soliq xizmatining organlariga belgilangan tartibda hisobot oyiidan keyingi oyining 15-kunidan kechiktirmayi, o'sib boruvchi yakun bilan har oyida taqdim etiladi.

Maktab ta'limini rivojlantirishga majburiyi ajratmalar har oyida hisob-kitoblar taqdim qilish muddatidan kechiktirmayi to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi har oyida hisobot oyiidan keyingi oyining 25-kunidan kech

iktirmayi, Jamg'armaning Ijro etuvchi direkciyasiga hisobot oyiidan keyingi oyining 1-kunidagi holat bo'yiicha hisoblangan va tushgan majburiyi ajratmalar summolari, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yiicha mazkur ajratmalar bo'yiicha qarzdorlik to'g'risidagi tezkor hisobotni taqdim etadi.

Jamg'armaning Ijro etuvchi direkciyasi majburiyi ajratmalar to'lovlaridan tushgan mablag'larga tegishli bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni Davlat soliq qo'mitasidan so'rash huquqiga ega.

Maktab ta'limiga majburiyi ajratmalar to'lovchilari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq mazkur to'lovning to'g'ri hisoblab chiqarilishi va o'z vaqtida to'lanishi uchun javob beradilar.

Jamg'armaning ijro etuvchi direkciyasi majburiyi ajratmalarning kelib tushgan summalarining maqsadli ishlatilishi uchun amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi.

Majburiyi ajratmalarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazorat davlat soliq xizmatining organlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda, davlat soliq xizmatining organlari qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviyi sanksiyalar qo'llash huquqiga ega.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasi qachon va nima maqsadda tashkil topgan?
2. Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiyi ajratmalarning to'lovchilari kimlar?
3. Korxona bir nechta faoliyat turi bilan shug'ullansa, u holda jamg'armaga ajratma qandayi tartibda amalga oshiriladi?
4. Ajratma korxonalarning qayisi daromadlari hisobiga shakllanadi?
5. Majburiyi ajratmalar stavkalari qandayi tartibda va qayisi mezonlar asosida o'rnatiladi?
6. Lizing xizmati ko'rsatadigan korxonalar uchun jamg'armaga to'lovlarni amalga oshirish ob'yekti bo'lib nima hisoblanadi?
7. Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga tushumlarni tushushini nazorat qilish qayisi davlat organi zimmasiga yuklatilgan?
8. Majburiyi ajratmalarni to'lovchilar hisob-kitoblarni qayisi tashkilotga taqdim etadilar?
9. Majburiyi ajratmalarni to'lashdan kimlar ozod etiladi?
10. Jamg'armaning ijro etuvchi direktiyasi qandayi xuquqlarga ega?